



## BIOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHGA INNOVATSIYON YONDASHUV

**Xonnazarova Saltanat To'lqinovna**

*Toshkent davlat pedagogika universiteti Biologiya va uni metodikasi kafedrası  
o'qituvchisi.*

*Maqolada biologiya o'qitish jarayonida fan-texnika, texnologiyalar va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalarni hisobga olib o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishga innovatsiyon yondashish uzluksiz ta'lim mazmuni-ni modernizatsiyalashning muhim vazifalaridan biri ekanligi, uning talablariga mos kelishi mehnat bozori va jamiyat madaniy hayotining barqarorlashuvini ta'minlashi, uning intellektual salohiyatli kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, uzluksiz ta'lim, modernizatsiyalash, intellektual salohiyat, zamonaviy bilim, ehtiyoj, qiziqish, aql-idrok.*

Ta'lim mazmuni fan, texnika, ishlab chiqarish va madaniyatning taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq tarzda modernizatsiyalashtiriladi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida uning globallashtirish jarayoni kechmoqda. Bu esa, ta'lim mazmuni fan va ishlab chiqarish talablariga mos kelishi zarurligini taqazo qiladi. Ta'lim mazmunining fan va ishlab chiqarish talablariga mos kelishi mehnat bozori va jamiyat madaniy hayotining barqarorlashuvini ta'minlaydi, uning sara kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Bularning barchasi pirovard natijada jamiyatning asosiy muammolarini yechishga ko'maklashadi. Fan va ishlab chiqarish sohalarining samarali faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat beradi.

Muxtaram Prezidentimiz aytganlaridek: "...har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz..."[1].

Yurtboshimizning yoshlarimizdan bunday fahrlanishi, ularni qo'llab-quvvatlashi yanada yuksak cho'qqilarga undaydi va intellektual imkoniyatlarini yanada rivojlantirishga turtki bo'ladi hamda ta'lim mazmunida keskin o'zgarishlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Prezidentimizning ta'biri bilan aytganda: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bolib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz." [Mirziyoyev.Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga





kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq.T."O'zbekiston" NMIU. 2016 y.14-bet]

Shunga ko'ra uzluksiz ta'lim tizimining mazmunini modernizatsiyalash bir qancha tushunchalarni to'plash va umumlashtirishni taqozo qiladi. Fan-texnika, texnologiyalar va ishlab chiqarishdagi yangiliklarni hisobga olish muammosi ta'lim mazmuni-ni modernizatsiyalashning muhim vazifalaridan biridir.

Mustaqillik yillarida umumiy o'rta ta'limning maqsadi va vazifalari tubdan yangilandi. O'quvchilarning intel-lektual faoliyat kursatish ko'lamini kengaytirish taqozo qilinmoqda. Chunki O'zbekiston jamiyatida aqliy mehnatning mavqei keskin oshmoqda. Shuning uchun ham o'quvchilarni ijtimoiylashtirish va kasb-hunarga yo'llash jarayonida ularga nazariy, texnik va umummadaniy bilimlarni o'zaro mutanosiblikda taqdim etish zaruriyati vujudga kelmoqda.


Bugungi kunda umumiy o'rta ta'limning mazmuni kelajak uchun xizmat qilishi kerak. U nafaqat bizni o'rab turgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning holati va parametrlari haqida konstruksiyalovchi, balki ularning istiqboldagi taraqqiyotini ham hisobga olgan holda belgilab berilishi lozim.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "...Bugungi kunda «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!» degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan..."[Mirziyoyev.Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq.T."O'zbekiston" NMIU. 2016 y.13-bet]

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quv-biluv jarayonini boshqarish tubdan o'zgardi. O'qituvchi shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sub'ektga aylandi. O'quvchilar esa, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga safarbar etilmoqdalar. Shuning uchun ham o'quv jarayonini boshqarish, rejalashtirish, uning natijalarini tahlil qilish va baxolash pedagogik prognostika natijalariga asoslangan holda yo'lga qo'yilishi kerak.

Ma'lumki, 5-9-sinf o'quvchilarining fikrlari ko'proq erkin va barqaror bo'ladi. Ular o'zlarining ishchanlik qobiliyatlarini ta'minlaydigan darajada axborotlarni qabul qilish imkoniyatlariga egadirlar. Bu davrga kelib, o'quvchilarning extiyojlari va qiziqishlari ortib boradi. Ular moddiy borliq manzarasini ifodalovchi ilmiy haqiqatlarni bilishga intiladilar. Atrofdagilar, sinfdoshlari, tengdoshlari bilan ko'proq muloqotga kirishishga harakat qila- dilar. Ularda ma'naviyat, bilishga oid extiyojlar tarkib topa boshlaydi. Bu esa, o'quv munozarasiga kirishish uchun qulay imkoniyatlarni ta'minlaydi. Natijada o'quvchilarning tafakkuri rivojlanadi. Ular o'z faoliyatlari va xulkatvorlarini mustaqil boshqarishga harakat qiladilar. Shuning uchun ham 5 - 9-sinf o'quvchilari o'quv munozarasiga kirishishga nisbatan tayyor bo'ladilar.

O'qituvchi o'quvchilardagi bunday xolatni aniq xisobga ol-gan xolda o'quv munozarasi mavzularini tanlashi lozim. O'quv munozarasini tashkil etishda





o`quvchilarning ko`tarinki tarzdagi bilish-qiziqishlari munozara jarayonining asosi sifa-tida xizmat qiladi. Bu davrda o`quvchilar axloqiy jihatdan mukammallashish bosqichiga kiradilar. Ular o`zlari uchun muhim qarorlar qabul qilishga harakat qiladilar. O`z faoliyat sohalarini erkin tanlashga intiladilar, bu esa, 12-16 yoshli o`quvchilarning muhim sifatlaridan biridir. Bu davrda o`quvchilar ruhiy jihatdan barqaror, intensiv tarzda rivojlanish pallasiga kiradilar. Ular o`zlari kuzatgan xodisalar va jarayonlar haqida maqsadga yo`naltirilgan tahlillarni amalga oshiradilar va asosiy, yetakchi holatni ajrata oladilar. Bu yoshdagi o`quvchilar obrazli-ko`rgazmali tafakkurdan aniq, ilmiy fikrlashga o`tadilar. Shu bilan bir qatorda, ularning tasavvurlari ham bosqichma-bosqich kengayib boradi. Bu tasavvurlar sinfdan-sinfga o`tgan sari oydinlashadi va barqarorlashadi, o`quvchilar asta-sekin o`z harakatlarini bohqarish ko`nikmalarini egallay boshlaydilar. Ularga uzoq davom etadigan, qiziquvchan, ko`tarinki, quvonchlarga boy kayfiyat xosdir. Ba'zi o`quvchilarda esa, salbiy holatlar ham kuzatiladi. Bunday salbiy xolatlar ular bilan o`tkaziladigan muloqot jarayonlari va dunyoqarashiga ta'sir ko`rsatadi. 5 - 7-sinf o`quvchilarida o`zlarining extiyojlari bilan imkoniyatlari orasidagi tafovutlarni anglab yetmaslik xolati kuzatiladi. Ular aksariyat xollarda o`zlari haqidagi fikrlarni to`g`ri qabul qila olmaydilar, ularda o`z faoliyatlarini tanqidiy baxolash ko`nikmasi yetarlicha shakllanmaganligi namoyon bo`ladi. Natijada ularda «Ko`pchilik meni yomon ko`radi», «Ular menga e'tiborsiz» degan tasavvur xosil bo`ladi. Bunday toifadagi o`quvchilar asta-sekin o`z sinfdoshlari, tengdoshlari xatto kattalarning fikrlari bilan ham hisoblashmay qo`yadilar. Natijada ular o`quv munozarasi jarayonida o`z guruhdoshlariga nisbatan nohayrixoxlik bilan yondashadilar, ularning fikrlari bilan hisoblashmasdan, o`z fikrlarini ustun qo`yishga harakat qiladilar. Bunday sharoitda o`qituvchi odil xakam sifatida ish tutishi lozim. U mazkur toifaga mansub o`quvchilarning fikrlari va muammoga yondashuvlari noto`g`ri ekanligiga ishontirishi kerak. Shu tariqa o`quv munozarasi ta'sirida o`quvchilarning ruhiyati va bilish faoliyatida sezilarli darajadagi ijobiy siljishlar sodir bo`ladi. O`quvchilarning xissiyotlari esa, o`quv munozarasi jarayonida ularning intilishlarini boshqarish, baxolash va shaxsiy barqarorliklarini ta'minlash imkonini beradi.

Ko`pgina o`quvchilar o`zlarining qiziquvchanliklari va muhokama qilinayotgan muammoning yechimini topishga intilishlari bilan ajralib turadilar. Bunday hollarda o`qituvchi o`quvchilarning fikrlarini muhokama qilinayotgan muammoga yo`naltirishi, barqaror xulosalar chiqarishga undashi lozim. O`quv munozarasi jarayonida o`quvchining fikrlari juda qisqa muddatga mo`ljallanib markazlashadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko`rsatdiki, biologiya fanini o`qitish jarayonida fan-texnika, texnologiyalar va ishlab chiharishdagi innovatsiyalarni hisobga olib o`quvchilarning tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish uzluksiz ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning muhim vazifalaridan biridir.

O`quvchilarda biologiya fani bo'yicha, fan-texnika, texnologiyalar va ishlab chiharishdagi innovatsiyalar boyicha to`plangan hayotiy dalillar qanchalik ko`p bo`lsa, ular munozara jarayoniga shunchalik faol kirishadilar. Ular o`zaro muloqotga har doim





tayyor bo'ladilar. Muammolarni tez tushunadilar va mohiyatini anglab yetadilar. Ularning o'quv ko'nikmalari hamda dunyoharashlari jadallik bilan mujassamlashadi.

O'quvchilarning ijtimoiy foydali tajribasi o'quv jarayonida boyitiladi. Bunda o'quv munozarasi alohida o'rin egallaydi. O'quv munozarasi davomida o'quvchilar erkin tanlov imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu nuqtai nazarlarning kengayishi va oydinlashishiga ko'maklashadi. Muayyan o'quvchilarning qarori ularning o'zliklarini namoyon qilishlari bilan bir qatorda, shaxsiy erkinliklarini ham ta'minlaydi. Bunday o'quvchilar o'z sheriklari bilan osongina til topishadilar va hamkorlikka kirishadilar. Bunday o'quvchilarning xulq-atvorlari va nuqtai-nazarlari barqaror bo'ladi. Ularning keyingi xatti-harakatlarini bashorat qilish imkoniyatlari kengdir.


Ularning qarorlari qat'iy va o'zlariga bergan baholari ob'ektivdir. Ular o'z guruhlari orasida tezgina obro' qozonadilar. O'z maqsadlari bilan imkoniyatlarini qiyoslab baxolay oladilar.

O'quv jarayonida o'z-o'zini namoyon qilish barqaror shaxsiy ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Bu o'quvchining tanlovi va xulq-atvori bilan bog'liq tarzda vujudga keladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim mazmunini muntazam modernizatsiyalash va uning istiqbolli modellarini belgilash, nazariy jihatdan asoslash pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni intellektual jihatdan rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. biologiya fanini o'qitish jarayonida fan-texnika, texnologiyalar va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalarni hisobga olib o'quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish uzluksiz ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning muhim vazifalaridan biridir. Shuning uchun ham, o'quv fanlarini o'qitish bo'yicha barcha kontseptsiyalarda o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozimligi asosiy masalalardan biri sifatida ta'kidlangan.

#### ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.
2. Mirziyoyev.Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq.T."O'zbekiston" NMIU. 2016 y.13-14 bet.
3. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2002.
4. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat (Vatan fidoyilari). Toshkent: Akademiya, 2000. 630 b.





5. Zapparov A.A., Holmirzaeva D., Saydanova D. Innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirishning metod va shakllari. "UZLUKSIZ TA'LIM". 2022, maxsus son, 24-29 bet.

6. Топилова Ф.М., Кимсанова Г.А. Школьное биологическое образование с ориентиром на мировой опыт. «ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, РАЗРАБОТКИ В ПРАКТИКУ: проблемы, исследования и решения».

Международная научно-практическая онлайн конференция. 2021 йил 21 апрель, Андижан

